

**KICHIK BIZNES SUB’EKTLARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

Mustaqil izlanuvchi: Shirinov I.M.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Ilmiy rahbar: i.f.d., Karimova A.M.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub’ektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, bank kreditlarining ahamiyati hamda amaldagi kreditlash tizimida uchrayotgan muammolar yoritilgan. Shuningdek, foiz stavkalari, garov ta’minoti, kredit risklarini baholash va axborot almashinuvi bilan bog‘liq kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, tijorat banklari, kreditlash mexanizmlari, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kredit risklari, garov ta’minoti, foiz stavkalari, investitsion faollik, bank kreditlari.*

Аннотация. *В данной статье научно проанализированы вопросы совершенствования механизмов кредитования субъектов малого бизнеса коммерческими банками. В исследовании раскрыта роль малого бизнеса в экономическом развитии, значение банковских кредитов, а также освещены основные проблемы, существующие в действующей системе кредитования. Выявлены недостатки, связанные с процентными ставками, залоговым обеспечением, оценкой кредитных рисков и обменом информацией, и предложены практические меры по их устранению.*

Ключевые слова: *малый бизнес, коммерческие банки, механизмы кредитования, финансовая поддержка, кредитные риски, залоговое обеспечение, процентные ставки, инвестиционная активность, банковские кредиты.*

KIRISH

Kichik biznes mamlakat iqtisodiyotining eng muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat ish o‘rinlarini yaratadi, balki innovatsion g‘oyalarni joriy etish, ichki va tashqi bozorlarga mahsulot yetkazish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, kichik biznesning rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy resurslardan, xususan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan kreditlar bilan bog‘liq.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun turli davlat dasturlari va moliyaviy instrumentlar mavjud. Biroq amaliyotda tijorat banklarining kichik biznes sub’ektlarini kreditlash mexanizmlari yetarlicha samarali emas, ular ko‘pincha yuqori foiz stavkalari, qat’iy garov talablari va murakkab hujjat tartiblari bilan cheklangan. Shu sababli mazkur tadqiqotning

maqsadi – tijorat banklari orqali kichik biznes sub’ektlarini kreditlashning samarali mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirish yo‘llarini ilmiy asoslash.

Mavzuni o‘rganganlik darajasi. Kichik biznes sub’ektlarini tijorat banklari orqali kreditlash va bu mexanizmlarni takomillashtirish masalalari iqtisodiyot va moliya ilmda yetarlicha e’tibor qozongan, ko‘plap xorijiy va mahaliy olimlar o‘z tadqiqotlarni olib borgan, xususan: J.M. Keynes, O.I. Lavrushin, E.F. Zhukov, A.V. Vahobov, Sh.Z. Abdullayeva, B.Yu. Xodiev, N.X. Jumayev va kabilar. Ular bank kreditlashining kichik biznes rivojiga ta’siri, risklarni boshqarish, uzoq muddatli moliyalashtirish va kredit siyosatini shakllantirish kabi masalalarni chuqur o‘rganishga qaratilgan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda kichik biznesni kreditlashning amaliy mexanizmlari, foiz stavkalarini kamaytirish, garov talablarini yumshatish va risklarni baholash metodikalarini yanada takomillashtirish masalalari yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur mavzu ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lib, banklar tomonidan kichik biznesni kreditlash mexanizmlarini optimallashtirish bo‘yicha yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish talab qilinadi.

Asosiy qism. Kichik biznes sub’ektlari — bu iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yurituvchi, mahsulot va xizmat ishlab chiqaruvchi korxonalar bo‘lib, ularning rivojlanishi ishchi o‘rinlari yaratish, soliq tushumlarini oshirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu korxonalar moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va raqobatbardosh mahsulot yaratish uchun kredit mablag‘lariga muhtoj.

Kichik biznesni kreditlash – bu tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari yoki boshqa moliya institutlari orqali kichik korxonalar va tadbirkorlik sub’ektlariga moliyaviy resurslar ajratish jarayonidir. Ushbu jarayonning maqsadi – kichik biznesning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, texnologik yangilanishlarni joriy etish va bozor raqobatbardoshligini oshirishga yordam berishdir.

O‘z navbatida kichik biznesni kreditlash quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy manba sifatida – kichik korxonalar o‘z mablag‘larini ishlab chiqarish, inventar va xomashyo sotib olish, xizmatlar ko‘rsatish yoki mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatadi;

- turli muddatli kreditlar – kreditlar qisqa, o‘rta va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin; investitsion loyihalar uchun odatda uzoq muddatli kreditlar ajratiladi;

- risk va kafolat tizimi – banklar odatda foiz stavkasi va garov talablarini belgilaydi, shuningdek, kreditni qaytarish xavfini baholaydi;

- qo‘llab-quvvatlash mexanizmi – davlat kafolatlari, subsidiyalar, lizing yoki boshqa moliyaviy vositalar yordamida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Shu nuqtai nazardan, kichik biznesni kreditlash iqtisodiy o‘rta, ish o‘rinlarini yaratish va innovatsion rivojlanish uchun muhim mexanizm hisoblanadi.

Kichik biznes iqtisodiyotning real sektori bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ish o‘rinlari yaratish va aholining bandligini oshirish, ichki bozorni turli mahsulotlar bilan ta’minlash, importni kamaytirish, yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni tatbiq etish, kabi

funksiyalarni bajaradi. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi kichik biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, shu sababli bank krediti kichik korxonalar uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Xozirgi kunda tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlarini quyidagi shakllarda moliyalashtiradi:

1. Qisqa muddatli kreditlar – aylanma mablag'lar va kundalik operatsiyalarni moliyalashtirish uchun;

2. Uzoq muddatli kreditlar – ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va kichik investitsion loyihalarni moliyalashtirish, asosiy vositalarni yangilash, innovatsion loyihalarni amalga oshirish, eksport salohiyatini oshirish.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, banklarning kichik biznesga ajratiladigan kreditlari aksariyat hollarda qisqa, uzoq muddatli investitsion moliyalashtirish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bundan tashqari, banklar kredit foiz stavkalarini yuqori belgilashadi, garov talablarini qat'iy qo'yadi va kreditlash jarayoni murakkab hujjat talablari bilan bog'liq.

Jadval 1

O'zbekiston tijorat banklarining umumiy kredit portfeli va kichik biznes / sanoat sektorlari bo'yicha taqsimoti (2021–2025)¹

il	Umumiy kredit portfeli, trln so'm	Korxonal ar kreditlari, trln so'm	Fuqarolar ga berilgan kreditlar, trln so'm	Kichik biznes va MChJ uchun, trln so'm	N PL*, %
021	415,8	240,0	175,8	48,0	4,0
022	457,3	262,5	194,8	52,5	3,9
023	495,6	285,0	210,6	55,8	3,5
024	533,1	305,0	228,1	58,2	3,0
025	570,4	325,0	245,4	61,0	2,99


*NPL – muammoli kreditlar ulushi.

Yuqorida qayd etilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy kredit portfeli 2021–2025 yillarda uzluksiz o'sdi, 415,8 trln so'mdan 570,4 trln so'mga yetdi. Bu tijorat banklari moliyaviy imkoniyatlarining kengayishini va iqtisodiyotdagi kredit resurslariga bo'lgan talabni aks ettiradi. Korxona va kichik biznes segmentlari ham o'sishda davom etdi: kichik biznes va MChJlar uchun ajratilgan kreditlar 48 trln so'mdan 61 trln so'mga yetdi. Bu kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyatni ko'rsatadi. Fuqarolarga berilgan kreditlar hajmi ham o'sdi, bu iste'mol kreditlarining rivojlanishini aks ettiradi. Muammoli

¹ Mualif tomonidan CBU.uz, UzDaily.uz, Bankers.uz saytlardagi ma'lumotlar asosida tayyorlanga

kreditlar ulushi (NPL) kamayib bormoqda: 4 % dan 2,99 % gacha. Bu bank kreditlarining sifatining yaxshilanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar va statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari tomonidan kichik biznesni moliyalashtirish jarayonida quyidagi muammolar mavjud:



1. rasm. Kichik biznesni sub’ektlarini moliyalashtirish jarayonidagi muammolar²

Mazkur muammolarni bartaraf etish va kreditlash jarayonining samaradorligini oshirish uchun tijorat banklari faoliyatida kompleks yondashuvni joriy etish zarur. Xususan, kichik biznes uchun mo‘ljallangan maxsus kredit mahsulotlarini ishlab chiqish, uzoq muddatli kreditlar ulushini oshirish, davlat kafolatlari va foiz stavkalarini subsidiyalash mexanizmlaridan faol foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kredit risklarini baholashda zamonaviy metodikalarni qo‘llash, kredit reyting tizimlarini joriy etish hamda raqamli bank texnologiyalari orqali axborot almashinuvini takomillashtirish kreditlash jarayonining shaffofligi va tezkorligini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Kichik biznesni moliyalashtirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, bandlik darajasini oshirish va aholi daromadlarini ko‘paytirishda muhim o‘rin tutadi. Kichik biznes sub’ektlari iqtisodiyotning eng moslashuvchan va tez rivojlanuvchi bo‘g‘ini bo‘lib, ularning faoliyatini samarali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash umumiy iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan kreditlash mexanizmlari kichik biznesni rivojlantirishning asosiy moliyaviy vositalaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi kreditlash mexanizmlarining mavjudligiga qaramay, ularning samaradorligi yetarli darajada yuqori emas. Xususan, kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarining yuqoriligi, garov ta’minotiga qo‘yiladigan qat’iy talablar, kredit

² Muallif ishlanmasi

risklarini baholashdagi uslubiy kamchiliklar hamda banklar va tadbirkorlar o‘rtasidagi axborot almashinuvining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi kichik biznes sub’ektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklamoqda. Bu holat kichik korxonalarning investitsion faolligini pasaytirib, ularning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va kreditlash samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

- davlat kafolati va subsidiyalarni joriy etish – foiz stavkalarini pasaytirish va moliyaviy yukni kamaytirish;

- maxsus kredit mahsulotlarini yaratish – turli tarmoqlar va loyihalar uchun individual moliyalashtirish instrumentlari;

- uzoq muddatli kreditlarni kengaytirish – investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish;

- raqamli kreditlash platformalarini joriy etish – bank va korxonalar o‘rtasidagi tezkor va shaffof axborot almashuvini ta’minlash;

- kredit risklarini baholash tizimlarini takomillashtirish – sanoat va texnologik xatarlarni hisobga olgan kompleks metodikalar va kredit reyting tizimlarini yaratish.

Umuman olganda, tavsiya etilgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish orqali tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub’ektlarini kreditlash mexanizmlari yanada takomillashadi, kredit resurslaridan foydalanish qulaylashadi va kichik biznesning investitsion jozibadorligi oshadi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London, 1936.
2. Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. – М.: КНОРУС, 2020. – 640 с.
3. Жуков Е.Ф. Деньги, кредит, банки: учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2019. – 560 с.
4. Усоскин, В.М. Кредитная политика коммерческих банков. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 384 с.
5. Vakhobov A.V. Bank tizimi va uni rivojlantirish muammolari. -T.: Iqtisod-Moliya, 2021. 312 b.
6. Abdullaev Sh.Z. Investitsion faoliyatni moliyalashtirish. -T.: Fan, 2020.